

Kolleksiya namunalarining morfologik kuzatuvlar natijalari, 2023-yil

№	Namuna nomi	O'simlik soni	Shonalash	Gullash	Ko'saklash
1	S-6524 standart nav	10	41	60	101
2	012229	16	42	62	106
3	012247	18	42	63	102
4	T-9\1-1	16	48	63	91
5	T-9\1-2	17	44	63	108
6	T-9\1-3	17	45	59	105
7	T-33\4-1	17	45	66	103
8	T-33\4-2	17	47	66	106
9	T-33\4-3	16	51	70	107
10	T-33\2-1	13	43	74	106
11	T-33\2-3	16	40	62	105
12	TT-10\4-1	15	38	54	94
13	TT-10\4\2	16	52	72	100
14	T-9\1-1	14	51	70	94
15	T-9\1-2	14	46	68	104
16	T-9\1-3	14	49	63	101
17	T-33\4-2	16	53	72	120
18	T-33\2-2	13	51	70	109
19	TT-10\4-2	13	51	70	108
20	S-6524 standart nav	15	45	69	104

1- va 20- chi qatorlarga S-6524 navi ekilgan. Qolganlari tizmalar. Namunalar 1- mayda unib chiqdi. Shu kungacha 2 marta sugorildi. Kultivatsiya qilindi. O'g'it berildi. Chinbarg chiqargan vaqtda nihollar yagana qilindi. Namunalar har bir qatorga 15tadan ekildi. Qator orasi 25 sm.

Tadqiqot natijasi. 2023 yilgi tajriba natijalarini tahlil qiladigan bo'lsak, jami 20ta kolleksiya namunalari ekish uchun tanlab olingan. Namuna nav sifatida S-6524 navi 2 qatordan ekilgan. Qolgan tizmalar 1 qaytariqda bir qatordan ekilgan. Standart nav S-6524 navining shonalash ko'rsatkichi-41 kunni, gullash ko'rsatkichi-60 kunni, ko'saklash ko'rsatkichi-101 kunni tashkil qilgan. TT-10\4-1 tizmaning shonalash ko'rsatkichlari- 38 kunni, gullash davrlari-54 kunni, ko'saklash davrlari-94 kunni tashkil qilgan. Bu esa tizmaning andoza navdan ustun ekanligini ko'rsatmoqda. Qolgan tizmalar andoza navga nisbatan olinganda 3-5 kun uzunroq davom etgani jadvalda o'z aksini topgan. Tezlash navlarning vegetatsiya davri o'rtacha 115 kunni tashkil qilishini inobatga olsak, bu salbiy natija emas. Tizmalarining o'rtacha ko'saklash davri o'rtacha 105 kunni tashkil qilgan. Bu esa tajriba samaradorligi natijasi hisoblanadi. Ushbu tizmalardan kelajakda nav yaratishda tavsiya qilinadi.

ADABIYOTLAR:

1. G'o'za zararkunandalari va kasalliklarga qarshi kurash. 92-kitob. Agrobank. 2021.
2. Hasanov B.O.va boshqalar. G'o'zani zararkunanda, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilish. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2002.
3. Xalikova M.B. Saydaliyev X. G. Tomentosum turning g'o'za seleksiyasidagi ahamiyati. Darslik. T. 2016. 30-bet.

UO'T: 633.88.271

KOVRAK (*FERULA SUMBOL*) O'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI

Shodiyeva Zulayxo Shavkatovna, assistent,
Saydullayeva Iroda Saydullayevna, assistent,
Choriyeva Surayyo Tolmosovna, talaba,
Muqimova Lobar Berdiyori qizi, talaba,
Boymirzayeva SHamsiya Ravshan qizi, talaba,

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti.

Annotatsiya. Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasida dorivor o'simliklarni yetishtirish va xom-ashyolarini qayta ishlash, ular asosida dori vositalarini ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilmoqda. O'simliklardan tayyorlangan dori-darmonlar kimyoviy dorilarga qaraganda salbiy ta'sir ko'rsatmaydi, balki organizmda biologik aktiv moddalar miqdorini oshiradi. Shu sababli yillar davomida o'simliklarning dorivorlik xususiyatlarini o'rganish, tabiiy zaxiralarini aniqlash, plantatsiyalarini tashkil etish ishlari olib borilmoqda.

Ushbu maqolada Kovrak (*Ferula sumbul*) o'simligining dorivorlik xususiyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tabletka, damlama, qaynatma, quyuq ekstrakt, me'da-ichak, nevroz.

Abstract. Herbal medicines do not have a more negative effect than chemical ones, but increase the amount of biologically active substances in the body. For this reason, over the years, work has been underway to study the medicinal properties of plants, determine their natural reserves, establish plantations.

This article provides information on the medicinal properties of the Cowrak (*Ferula sumbul*) plant.

Keywords: tablets, tinctures, decoctions, dark extracts, gastrointestinal, for neuroses.

Mavzuning dolzarbligi: Dorivor o'simliklarning organizmga ta'siri ularning tarkibidagi birikmalarning miqdoriga bog'liq. Bu birikmalar o'simlikning har xil qismlarida turli miqdorda to'planadi. Dori tayyorlashga o'simlikning kerakli qismlari turli muddatlarda

yig'iladi. Ma'lumki hududlarda o'sadigan o'simlik va yashaydigan hayvonlarni tabiiy sharoitda saqlab qolish, ularni bioekologik xususiyatlarini o'rgangan xolda turli xududlarda moslashtirish, plantasiya hamda qo'riqxonalarini tashkil etish ahamiyati kattadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 19-avgustdagi qarorida ko'rishimiz mumkinki fundamental, amaliy va innovasion tadqiqotlar olib borish hamda ularning natijalarini ishlab chiqarishga keng joriy etishga alohida to'xtalib o'tilgan. Respublikamizda dorivor o'simliklarni yetishtirish va xom ashyalarini qayta ishlash ular asosida dori vositalarini ishlab chiqishni keng yo'lga qo'yish zarur.

Ushbu vazifalarni hal etish esa, ilmiy-amaliy muammolarni chuqur tadqiq etishning zarurligi tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi: Yerda odam paydo bo'lishidanoq uni oziqlantirgan va davolangan, dushmanlardan himoya qilingan o'simlik dunyosi bilan uzviy bog'langan.

Dorivor o'simliklar qadimgi Xitoy, Hindiston, Ossiriya, Vavilon, Yegipet, Gretsiya va Rimda keng qo'llagan. Odam tomonidan o'simliklarning dori sifatida foydalanilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar 5000 yil ilgari Iroq territoriyasida joylashgan Shumer davlatiga tegishli qadimgi yozma yodgorliklarda keltirilgan. Qadim zamonlardan dunyodagi barcha xalqlar o'simliklardan dorivor maqsadlarda foydalanib kelgan.[1]

Floramizda yovvoyi holda o'sadigan ko'pgina o'simliklar xalq xo'jaligining turli sohalarida, shu jumladan, oziq-ovqat, yem-xashak, oshlovchi va bo'yoq beruvchi, parfumeriya hamda dori-darmon olish uchun ishlatiladi. Tibbiyot fanlari o'simliklardan juda ko'plab dori tayyorlash maqsadida foydalanadi. Tabiatdan yig'ib olinayotgan har bir dorivor o'simlikni yig'ib olishdan oldin uning biologik va ekspluatatsion xarakterini o'rganib, so'ngra yiliga yig'iladigan miqdorini aniqlash va shunga muvofiq ularni qayta tiklash chora-tadbirlarini ko'rish talab etiladi.[1,2] O'simliklardan tayyorlangan dori preparatlari organizimga hech qanday salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Shuning uchun, qadimdan va hozirda ham ko'plab dori preparatlar o'simliklardan tayyorlanib kelinmoqda. Masalan, jigar, oshqozon va ichak kasalliklarini davolashda 70 %, bachadon kasalliklarini davolashda 88 %, balg'am ajratuvchi preparatlarning 70 %, yurak kasalliklarini davolashda qo'llaniladigan glikozidlar hamda tibbiyotda ma'lum maqsadlarda qo'llaniladigan alkaloidlar, efir moylari va boshqa ko'plab preparatlar aynan o'simliklardan olinayotganligi barchaga ma'lumdur. Ayniqsa, keyingi yillarda o'simliklardan tayyorlangan dori-darmonlar soni tobora oshib bormoqda va ularga bo'lgan talab ham yuqoridir. Chunki, uzoq vaqt to'xtovsiz qo'llaniladigan kimyoviy preparatlar albatta, biror-bir organizm funksiyasini buzilishiga olib keladi. O'simliklardan tayyorlangan dori – darmonlar esa salbiy ta'sirga ega bo'lmasdan balki, organizmda biologik aktiv moddalar miqdorini oshiradi. Shu sababli yillar davomida dorivor o'simliklarni o'rganish, ya'ni tabiiy zahiralarni aniqlash va ularni imkoniyat darajasida madaniylashtirish choralari ko'rilyapti va amaliy ishlar olib borilmoqda. Lekin, ilmiy-texnikaviy kengashning fikriga ko'ra yovvoyi holda o'sadigan dorivor o'simliklardan foydalanish va ularni muhofaza qilish ishlarida juda ko'p kamchiliklar mavjud bo'lib, bularning barchasi dorivor o'simliklar zaxiralarining kamayib ketishiga sabab bo'lmoqda. Kelajakda dorivor o'simliklarni tabiiy zahirasiga katta zarar yetkazmasdan kerakli miqdorini yig'ib olish uchun ma'lum bir maxsus metodlar bo'yicha o'rganilishi va yig'ib olinishi zarur.[2,6]

O'zbekistonda jumladan Samarqandda o'sadigan dorivor o'simliklardan biri Kovrak (*Ferula L.*) turkumi turlari bo'lib, imliy tibbiyotda va xalq tabobatida qimmatli dorivor, xomashyo sanoatida esa upa-elik va turli efir moylari olinadigan noyob o'simlik hisoblanadi.

Kovrak (*Ferula L.*) turkumi *Ferula sumbul* turi smolasining manba'i O'rta Osiyoning Turkiston, Zarafshon va Hisor

tog'larida uchraydigan endemik tur – *Ferula sumbul* o'simligidir. Bu o'simlikning smolasi sobiq Ittifoq farmakopeyasining 1-3 tomlariga, Buyuk Britaniya, Gretsiya, Portugaliya, AQSH va Meksika davlatlari farmakopeyasiga dorivor modda sifatida kiritilgan. Bu o'simlik dorivor smola manba'i hisoblanganligi uchun uni mahalliy aholi tomonidan yirtqichlarcha foydalanishi natijasida o'simlikning zahiralari keskin kamayib ketganligi sababli u O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan.[4.5]



1-rasm. Kovrak (*F. Subul*) o'simligining ildizi.



2-rasm. Kovrak (*F. Subul*) o'simligi ildizining maydalangan kukuni.

O'rta Osiyo tabiblari uni jigar, sil, me'da-ichak, nevroz kasalliklarini davolashda va isitmani tushirishda, bronxial atsmada, qandli diabetsda, sifilisda, xavfli o'smalarni davolashda, sirdan turli teri kasalliklarida ishlatganlar Ferula sumbul - Kovrak (Ferula L.) turkumi turlari ichida yana bir dorivor xususiyatlariga ega bo'lgan turlardandir. Dastlab bu tur Ferula moschata deb nomlangan. Samarqand viloyatidan tashqari Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarining tog'li hududida tarqalgan. Qoyatoshli jarliklar tepaligida, notekis toshli-shag'alli joylarda o'sadi. Ildizida kuchli efir moylari va o'ziga xos alkaloidlar mavjud. SHu sababli xalq tabobatida keng qo'llanadi. Mahalliy xalq sumbul deb nom bergan. Abu Ali Ibn Sinoning asarlarida ham bu o'simlik haqida qimmatli fikrlar berilgan.[3]

Ferula sumbul yoki sumbul kovrak soyabonguldoshlar oilasiga mansub ko'p yillik polikarp o'simlik hisoblanadi. Sumbul qadimdan xalq tabobatida turli kasalliklarni davolashda keng qo'llanilib kelingan. Abu Ali Ibn Sino uning ildizi yelimidan dori tayyorlab taloq, jigar, asab, yurak, o'pka va sariq kasalliklarini davolashda foydalangan. Abu Rayxon Beruniy asarlarida ham oshqozon, jigar kasalliklarini davolash to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan "Ashyolar xosiyati" risolasida sumbulni qanday iste'mol qilishni, tabiiy haroratni oshirishda foydasi katta ekanligi haqida ma'lumotlar berilgan.[4]

Ferula sumbul ildizidan tayyorlangan qaynatma jarohatlarning bitishida asosiy vositalardan biri sifatida ishlatiladi. Xorijiy mamlakatlarda Ferula sumbuldan tayyorlangan preparatlar asab kasalliklarni va bronxial astmaga qarshi davolovchi vosita sifatida qo'llaniladi.

Xalq tabobatida Ferula sumbul ildizidan yelim smola olinib tomir tortishini, ko'k yo'tal, o'lat, tish og'rig'i va asab kasalliklarini davolashda hamda gijja haydovchi, quvvatga kirituvchi, balg'am ko'chiruvchi dori sifatida qo'llaniladi. Ilmiy tibbiyotda yelim smolaning dorivor preparatlari (nastoyka, emulsiya) astma va asab kasalliklarini davolashda ishlatiladi.[4]

Kovrak (*F. Subul*)ning ildizidan qotirilgan shira olinadi. Bu shiraning kimyoviy tarkibi quyidagicha: smola 9, 35-65, 15%, lamed moddasi esa 12-48% va 5,8-20% efir moyidan iborat. Smoladan ferula kislatasi, asarzer A, asarezinotanel, asarezinol va efirlardan farneziferal A, farneziferal B, farneziferal C va umbelliferal olinadi. Efir moyi tarkibiga ko'ra asosan organik sulfidlardan iborat (65,6%), jumladan geksenil sulfid, geksenildisulfid va ftorbutil, propenil disulfidlar. Bundan tashari efir moyida apinen va n-oksikumarin mavjud. Ferula sumbul ildizi tarkibida 9 % gacha smola mavjud. Bu smoladan 4,5 % gacha efir moyi olinadi. Bu efir moyi tarkibida asetattimellari, setronelol doreliola, ferulin, sambulin, doremon va doremol moddalari bor.[4,5]

Ma'lumki, Ferula L. turkumi turlarida smolalar, efir moylari, kamedlar, uglevodlar va boshqa moddalar mavjud bo'lib, qadimdan dorivor o'simlik sifatida foydalanib kelingan.

Ferula turkumining vatanimiz hududlaridagi turlarining foydali xususiyatlari, efir moyli, kraxmalli, asal beruvchi, yem-xashak o'simlik sifatida keng o'rganilmoqda.

Xulosa: Shu sababli Kovrak (*F. Subul*)ning tabiiy arealini saqlab qolish, madaniylashtirish va o'simlikning dorivor xususiyatlaridan unumli foydalanish mamlakatimiz farmatsevtika sanoatining rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. O'.Ahmedov, A.Ergashev va boshqalar. "Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiyasi". Darslik. "Tafakkur-bo'stoni". Toshkent-2018 yil. 224 bet.
2. Э.Т. Бердиев ва бошқалар. "Ўрмон доривор ўсимликлари". Ўқув қўлланма. "Ибн Сино". Тошкент-2016. 256 бет.
3. Madrahimov A.S. «Ibn Sinoning shifobaxsh o'simliklari haqida». Toshkent. 1992. 121 b.
4. Shavkatovna, A. S. Z. (2023). THE EFFECT OF THE MEDICINAL PLANT FERULA SUMBOL ON THE ANIMAL ORGANISM.
5. Shavkatovna, A. S. Z. (2023). MEDICINAL PROPERTIES OF THE PLANT CROCUS SATIVUS L.
6. Shavkatovna, S. Z., & Saydullayeva, S. I. (2023). Havolaki Yersovuni (Leontice Incerta Pall) Ning Urug 'Ko 'Rsatkichlari. Journal of Integrity in Ecosystems and Environment, 1(2), 5-7.

UO'T: 632.633.31.7.934

MOSH EKINIDA O'RGIMCHAKKANAGA QARSHI KIMYOVIY PREPARATLARNING BIOLOGIK SAMARADORLIGI

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna,
Xaydarova Shahnoza Abdunazarovna,
Toshkent davlat agrar universiteti.

Annotatsiya. Maqolada mosh ekinida o'rgimchakkanaga qarshi Vertimek, 1,8 % em.k.(0,3 l/ga), Nissoran, 5% em.k. (0,2 l/ga), Ximgold, 72 % em.k.(0,3 l/ga) preparatlarni yuqorida ko'rsatilgan sarf miqdorida qo'llanilganda 89,0-91,0 % gacha biologik samaradorlikka erishilganligi keltirilgan.

Kalit so'zlar: Mosh, ixtisoslashgan zararkunanda, o'rgimchakkana, vegetatsiya, insektoakaritsidlar, zararlash darajasi.

Аннотация: В статье представлены Vertimek, 1,8% em.k. (0,3 л/га), Nissan, 5% em.kz. (0,2 л/га), Ximgold, 72% em.k. (0,3 л/га) приведены в достижении биологической эффективности до 89,0-91,0% при применении препаратов в пределах вышеуказанных затрат.

Ключевые слова: Маш, специализированный вредитель, паутиный клещ, вегетация, инсектоакарициды, уровень заражения.